



FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE ON THE POSSIBILITIES AND IMPLEMENTATION PROBLEMS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN RESOLVING CONTRACTUAL DISPUTES

Farzona Toshpulatova

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: farzonatoshpulatova725@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: “Decision-support systems”, “ethical-by-design”, legal status, liability, “AI governance”, pilot projects.

Received: 22.05.25

Accepted: 24.05.25

Published: 26.05.25

Abstract: this article analyzes the role of artificial intelligence in resolving contractual disputes, the problems of applying artificial intelligence in resolving contractual disputes, the possibilities of using artificial intelligence in resolving contractual disputes in developed foreign countries, and the prospects for improving legislation on the application of artificial intelligence to contractual relations.

SHARTNOMAVIY NIZOLARNI HAL ETISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TATBIQ ETISH MUAMMOLARIGA DOIR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Farzona Toshpulatova

Magistratura talabasi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Tashkent, O'zbekiston

E-mail: farzonatoshpulatova725@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: “Decision-support systems”, “ethical-by-design”, huquqiy maqom, javobgarlik, “AI governance”, sinov loyihalari.

Annotatsiya: ushbu maqolada shartnomaviy nizolarni hal etishda sun'iy intellektning o'rni, shartnomaviy nizolarni hal etishda sun'iy intellektni tatbiq etish etish muammolari, rivojlangan xorijiy davlatlarda shartnomaga oid nizolarni hal etishda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari, shartnoma munosabatlariga sun'iy intellektni qo'llashga doir qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan.

**ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН О ВОЗМОЖНОСТЯХ И ПРОБЛЕМАХ
РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРИ
РАЗРЕШЕНИИ ДОГОВОРНЫХ СПОРОВ**

Фарзона Тошпулатова

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: farzonatoshpulatova725@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Системы поддержки принятия решений», «этичность по замыслу», правовой статус, ответственность, «управление ИИ», пилотные проекты.

Аннотация: В статье анализируется роль искусственного интеллекта в разрешении договорных споров, проблемы применения искусственного интеллекта при разрешении договорных споров, возможности использования искусственного интеллекта при разрешении договорных споров в развитых зарубежных странах, а также перспективы совершенствования законодательства по вопросам применения искусственного интеллекта к договорным отношениям.

KIRISH. Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari turli sohalarda inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Yuridik soha, xususan, shartnomaviy nizolarni hal etish jarayonlari ham bundan mustasno emas. Sun'iy intellekt yordamida shartnomada shartlarini tahlil qilish, muammoli bandlarni aniqlash, nizolar yuzaga kelishining oldini olish, shuningdek, yuzaga kelgan nizolarni tez va samarali hal etish imkoniyati kengaymoqda.

Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, sun'iy intellekt — bu inson aqliy faoliyatini modellashtiruvchi dasturiy vosita bo'lib, u turli ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va ba'zida mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega.

Shartnomaviy nizolar kontekstida sun'iy intellekt ko'p yo'nalishlarda faol qo'llanilmoqda. Zamonaviy SI tizimlari yuridik hujjatlarni, xususan, shartnomalarni avtomatik tarzda tahlil qilib, ularning kuchga ega ekanligi, qonunchilik talablariga muvofiqligi, xavfli yoki noaniq bandlar mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayon huquqshunoslarga vaqtini tejash bilan birga, potentsial nizolarning oldini olishda yordam beradi. Sun'iy intellekt shartnomada shartlarini tezkor tahlil qilib, nizoga olib kelishi mumkin bo'lgan bandlarni aniqlaydi. Bu jarayon inson xatolarini kamaytiradi va shartnomalarning huquqiy jihatdan to'liqligini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt algoritmlari millionlab sud qarorlarini tahlil qilgan holda statistik ehtimollar asosida qaror modelini taklif qiladi. Bu amaliyot yuristlar, sudyalar va taraflar uchun masalaning huquqiy holatini chuqurroq anglash, shuningdek, sud qarorlarining mumkin bo'lgan natijalarini bashorat qilish imkonini beradi.

Zamonaviy huquqiy tizimlar oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bu shartnomaviy nizolarni tez, adolatli va iqtisodiy jihatdan samarali hal etishdir. Bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlardan foydalanish tobora dolzarb tus olmoqda. Ammo sun'iy intellektni shartnomaviy nizolarni hal etishga bevosita tatbiq etish masalasi nafaqat texnologik, balki huquqiy, axloqiy va institutsional jihatdan ham qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining huquq sohasi, xususan, shartnomaviy nizolarni hal etish jarayonlariga tatbiq etilishi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Zamonaviy yondashuvlar sun'iy intellektdan nafaqat ma'lumotlarni tahlil qilish, balki nizolarni aniqlash, baholash va hatto yechimlar taklif etish uchun ham foydalanish imkoniyatini bermoqda. Shu bilan birga, bu yo'nalishda bir qator huquqiy, axloqiy va texnik muammolar ham mavjud.

ASOSIY QISM. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari dunyo bo'yicha ko'plab sohalarda, jumladan, huquqiy sohada ham yangiliklarni kiritmoqda. O'zbekiston uchun sun'iy intellektning shartnomaga munosabatlariga qo'llanilishi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shartnomaviy nizolarni hal etishda sun'iy intellektdan foydalanish, albatta, yuridik tizimni samarali va tezkorlashtirishga olib keladi. Biroq, bu texnologiyalarning qonuniy tartibga solinishi, ularning huquqiy jihatlari, axloqiy me'yorlari va muvofiqligi hali ham murakkab va yechimi talab qilinadigan masala sifatida qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning shartnomaga munosabatlariga sun'iy intellektni qo'llashga doir qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari juda muhim ahamiyatga ega.

Shartnomaga huquqi doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi zamonaviy huquqiy tizimlar oldida turgan eng dolzarb va murakkab masalalardan biridir. Chunki mazkur texnologiyalar nafaqat oddiy avtomatlashtirilgan vositalar sifatida xizmat qilmoqda, balki insonning fikrlash faoliyatini qisman almashtira oluvchi, mustaqil qaror qabul qilishga qodir tizimlar sifatida shartnomaga tuzish, uni tahlil qilish, talqin etish va hatto shartnomaga buzilgan taqdirda nizoni hal qilish jarayonlariga bevosita integratsiyalashmoqda. Bunday sharoitda an'anaviy huquqiy yondashuvlar va mavjud normativ-huquqiy baza ushbu texnologiyalarni to'liq tartibga sola olmaydi, bu esa huquqiy bo'shliqlar, tartibga solinmagan munosabatlar va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimi kontekstida bu masalaning o'r ganilishi va qonunchilikni takomillashtirish zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Hozirgi vaqtida mamlakatda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" kabi hujjatlar qabul qilingan bo'lsada, shartnomaga huquqi sohasida sun'iy intellektni qo'llashga doir maxsus normativ-huquqiy mexanizmlar mavjud emas. Natijada, mazkur sohada yuzaga kelayotgan amaliy ehtiyojlar va

xalqaro tajriba asosida milliy qonunchilikni yangilash va takomillashtirish masalasi nafaqat texnologik rivojlanish, balki huquqiy barqarorlik va adolatli yondashuvlarni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa tomondan, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalari yordamida tuzilgan yoki boshqarilgan shartnomalarni huquqiy jihatdan tan olish, ushbu vositalar ishtirokida yuzaga keladigan nizolarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularga oid mas'uliyat mezonlarini belgilash bo'yicha aniq yondashuvlar shakllangan. Masalan, Buyuk Britaniyada "aqli shartnomalar" (smart contracts) bo'yicha 2019-yilgi UK Jurisdiction Taskforce tomonidan chiqarilgan rasmiy huquqiy bayonotda bunday shartnomalar huquqiy kuchga ega ekani e'tirof etilgan. Bayonotda ta'kidlanishicha, aqli shartnomalar Ingliz qonunchiligidagi shartnomalarni tuzishning asosiy talablarini qondira oladi, ya'ni ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida kelishuv bo'lishi, huquqiy munosabatlarni yaratish niyati va har taraflar tomonidan biror narsa taqdim etilishi kerak. Shu bilan birga, aqli shartnomalar odatiy huquqiy tamoyillar asosida talqin qilinishi va sudlarda ijro etilishi mumkin, masalan, shifrlash kalitlari orqali imzo talablari bajarilishi ehtimoli yuqori deb hisoblanadi.

Shuningdek, AQShda algoritmik shartnomalarni tuzish vositalarining javobgarlik asoslari, sun'iy intellekt tomonidan chiqarilgan qarorlarning yuridik oqibatlari bo'yicha muayyan qonunchilik choralarini ko'rilmoxda. Estoniyada esa maxsus sun'iy intellekt sudyalari tomonidan kichik miqdordagi nizolarni avtomatik hal qilish tizimi joriy etilgan bo'lib, bu huquqiy eksperiment sifatida xalqaro e'tirofga ega bo'lmoqda. Shunga o'xshash yondashuvlar O'zbekiston uchun ham bevosita ahamiyatga ega bo'lib, ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali mavjud bo'shliqlarni to'ldirish, huquqiy muhitni zamon talablariga moslashtirish mumkin.

Shartnomalarni tuzishda sun'iy intellekti qonunchilikni etishda asosiy e'tibor berilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar – bu sun'iy intellekt tomonidan tuzilgan shartnomalarning huquqiy maqomi, ularning amal qilish shartlari, foydalanuvchilar va ishlab chiquvchilar o'rtasidagi mas'uliyatning taqsimoti, sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan holda yuzaga kelgan nizolarda sud yoki arbitraj organlarining pozitsiyasi hamda bunday jarayonlarning shaffofligi, izohlanadiganligi va inson nazorati ostida amalga oshirilishini ta'minlovchi etik tamoyillar bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida bu texnologiyalar fuqarolik huquqi, xususan shartnomaviy munosabatlar sohasida keng tatbiq etilishi uchun, qonunlarda aniq va bevosita normalarning bo'lishi talab qilinadi. Aks holda, sun'iy intellekt vositalari yordamida tuzilgan yoki boshqarilgan shartnomalar huquqiy kuchga ega deb topilmasligi, sud amaliyatida bunday vositalardan foydalanan holatlarning e'tibordan chetda qolishi va natijada iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining huquqiy noaniqliklar ichida harakat qilishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, sun’iy intellektning xususiyatlaridan kelib chiqib, huquqiy normalar algoritmik tizimlarning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Jumladan, sun’iy intellekt vositalarining o‘quv modeli qanday ma’lumotlarga asoslanayotgani, qarorlar chiqarishdagi shaffoflik darajasi, diskriminatsion algoritmlar xavfi, shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlashga oid cheklovlar kabi omillar qonuniy jihatdan mustahkamlab qo‘yilishi kerak. Bu orqali nafaqat texnologik innovatsiyalarni huquqiy qo‘llab-quvvatlashga erishiladi, balki inson huquqlari, adolat tamoyillari va huquqiy ishonchlilik singari muhim huquqiy qadriyatlar ham saqlanib qoladi. Xususan, xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga ko‘ra, sun’iy intellekt vositalari bilan bog‘liq huquqiy muammolarni hal qilishda “inson nazorati”, “algoritmik shaffoflik” va “etik javobgarlik” tamoyillari markaziy o‘rinda turishi lozim.

Shu asosda, O‘zbekistonda sun’iy intellektni shartnama huquqiga tatbiq etish jarayonida xalqaro me’yoriy hujjatlar – xususan, UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan elektron tijoratga oid modellari va Yevropa Ittifoqining sun’iy intellektga oid qonunchilik tashabbuslari – tahlil qilinib, ularga moslashtirilgan milliy qonun hujjatlari ishlab chiqilishi kerak.

Yuqorida omillarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, shartnama munosabatlariga sun’iy intellektni qo‘llash bo‘yicha O‘zbekiston qonunchiligi hali dastlabki bosqichda bo‘lib, ushbu sohada kompleks huquqiy islohotlarni amalga oshirish zamon talabi hisoblanadi. Bu islohotlar ilmiy asoslangan yondashuvlar, xorijiy tajriba, xalqaro me’yorlar va mavjud texnologik holatlarni hisobga olgan holda olib borilishi kerak. Faqat shundagina sun’iy intellekt texnologiyalarining huquqiy jihatdan muvofiqlashtirilgan qo‘llanilishi orqali mamlakatning shartnomaviy munosabatlarda samaradorligi, huquqiy barqarorligi va investorlar uchun jozibadorligi oshadi.

Avvalo, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqiy tizimi doirasida sun’iy intellekt texnologiyalarini shartnama munosabatlariga tatbiq etishga oid aniq normativ asoslar mavjud emasligi, bu sohada tartibga solish masalalari umumiyligi raqamlashtirish siyosati bilan chegaralanib qolayotganini ta’kidlash zarur. Fuqarolik kodeksining mavjud normalari inson ishtirokida an’anaviy shartnama tuzish, bajarish va bekor qilish mexanizmlariga asoslangan bo‘lib, sun’iy intellekt ishtirokisiz huquqiy munosabatlar modeliga qaratilgan. Holbuki, amaliyotda allaqachon ayrim tashkilotlar va tadbirdorlik subyektlari sun’iy intellekt asosidagi tizimlardan – masalan, avtomatlashtirilgan maslahatchi dasturlar, shartnama loyihasini tahlil qiluvchi algoritmlardan foydalanishni boshlagan. Ushbu vaziyat mavjud huquqiy bazaning real ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga nisbatan orqada qolayotganini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellektning shartnomaviy jarayonda ishtirok etishi masalasida eng asosiy huquqiy muammo bu — sun’iy intellekt tomonidan tuzilgan yoki boshqarilgan shartnomalarning huquqiy kuchini aniqlashdan iboratdir. Agar shartnama to‘liq yoki qisman sun’iy intellekt tomonidan

yaratilgan bo'lsa, u holda bunday hujjatni qonuniy deb topish mezonlari, uning taraflari va ularning huquq va majburiyatlar qanday belgilanadi? Bunda inson tomonidan tasdiqlangan harakatlar bilan sun'iy intellekt orqali bajarilgan harakatlar o'rtasida aniq huquqiy chegara mavjud bo'lishi talab etiladi. Aks holda, masalan, sun'iy intellekt tizimi noto'g'ri shartnomalar tuzsa yoki noxolis bandlarni taklif etsa, undan kim javobgar bo'ladi — texnologiyani ishlab chiquvchimi, foydalanuvchimi yoki tizimning o'zi? Ushbu savollar hal etilmasad turib, sun'iy intellekt vositalarining to'laqonli yuridik maqomi haqida gapirish qiyin.

Keyingi muhim jihat — bu xorijiy tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston qonunchiliga moslashtirilishi mumkin bo'lgan yondashuvlarni aniqlashdir. Masalan, Buyuk Britaniyada "UK Jurisdiction Taskforce" tomonidan 2019-yilda e'lon qilingan "Legal Statement on Cryptoassets and Smart Contracts" hujjatida aqli shartnomalar huquqiy kuchga ega ekanligi e'tirof etilgan va ularning avtomatik bajarilishi sud tomonidan haqiqiy deb topilishi mumkinligi bayon qilingan.

O'zbekistonda shartnomalar huquqi doirasida sun'iy intellektga oid normativ huquqiy asoslarni shakllantirishda xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan BMT huzuridagi UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan elektron tijoratga oid Model qonunlar, shuningdek Yevropa Ittifoqining "AI Act" (2021-yilda taklif etilgan) kabi tashabbuslari tahlil qilinishi va ular asosida milliy huquqiy model yaratilishi zarur. Bu, bir tomondan, xorijiy investorlar ishonchini oshiradi, ikkinchi tomondan, O'zbekistonni global huquqiy texnologik muhitga integratsiya qilish imkonini beradi.

Yana bir asosiy yo'naliш bu shartnomaviy munosabatlarda sun'iy intellekt bilan bog'liq etik va xavfsizlik masalalarining huquqiy tartibga solinishi. Dasturiy vositalar tomonidan ishlab chiqilgan shartnomalarda inson nazoratisiz qarorlar qabul qilinishi xavfi mavjud. Masalan, sun'iy intellekt tizimi ma'lumotlarga asoslangan holda diskriminatsion yoki odil bo'limgan shartlarni taklif etishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellektga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, ular qanday ishlanayotgani, algoritmlarning qaysi ma'lumotlar bazasiga tayangani, ularning asoslash mexanizmi – bularning barchasi qonunchilik doirasida ochiq-oydin tartibga solinishi kerak. Hozirgi global yondashuvlarda "algoritmik shaffoflik", "izohlanadigan SI" va "inson nazorati" tamoyillari asosiy o'rinn egallamoqda. Shu sababli O'zbekiston qonunchiligida ham ushbu mezonlar sun'iy intellekt ishtirokidagi shartnomalar munosabatlarining ajralmas qismi sifatida belgilanmog'i zarur.

Amaliy va normativ tafovutlarni bartaraf etish bo'yicha aniq huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati ham eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) sun'iy intellekt tomonidan tuzilgan shartnomalarning huquqiy maqomini tan olish; 2) ularning notarial yoki elektron raqamli imzo orqali tasdiqlanish tartibini ishlab chiqish; 3) sun'iy intellekt orqali yuzaga kelgan nizolarning yuridik subyektlarini aniqlash; 4) algoritmik xatolar yuzasidan javobgarlikni tartibga soluvchi aniq qonun normalarini ishlab chiqish; 5) sun'iy intellekt orqali

amalga oshirilgan shartnoma buzilishlarida arbitraj va sudlar uchun alohida protsessual normalarni ishlab chiqish. Bu yo‘nalishlar orqali O‘zbekistonda nafaqat sun’iy intellektning huquqiy maqomini belgilash, balki real iqtisodiy muomalada undan foydalanishni huquqiy kafolatlash imkoniyati yaratiladi.

Qonunchilik islohotlarini keng jamoatchilik, texnologiya mutaxassislari, yuridik sohasi vakillari va investorlar bilan ochiq muhokama qilish asosida olib borish zarurati ham muhimdir. Har qanday texnologik yondashuv, ayniqsa sun’iy intellektga oid normativ bazani shakllantirishda qat’iy yuridik asoslar bilan birga, keng qamrovli ijtimoiy konsensus ham talab qilinadi. Bu esa qonunchilikni faqat “yuqoridan-pastga” asosida emas, balki “quyi-bosqichlardan” kelayotgan ehtiyojlarga javoban amalga oshirishni taqozo etadi. Bunday islohotlar huquqiy tizimning legitimligini, zamon bilan hamnafasligini va fuqarolik jamiyatini bilan integratsiyalashganligini ko‘rsatadi.

Tahliliy nuqtadan tashqari yana bir muhim masala — bu shartnomalar doirasida sun’iy intellekt algoritmlarining o‘zini o‘zi o‘rganish (self-learning) xususiyatiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq xavflarni huquqiy tartibga solish zaruratidir.

An’anaviy shartnoma huquqida muomalada qatnashayotgan har bir subyekt ma’lum bilim, ixtiyor va iroda asosida harakat qiladi. Biroq sun’iy intellekt tizimlari vaqt o‘tishi bilan yangilanishi, qaror qabul qilish mezonlarini o‘zgartirishi mumkin. Bu esa dastlabki tuzilgan shartnoma modeli bilan keyinchalik ishlab chiqiladigan tavsiyalar, yechimlar o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston qonunchiligidagi bunday o‘zini o‘zi takomillashtiruvchi tizimlar natijasida yuzaga keladigan muammolar bo‘yicha hali hech qanday normativ aniqlik mavjud emas. G‘arb davlatlarida esa bu muammo “dynamic algorithmic contracts” deb ataladi va bu borada ehtiyyot choralar — masalan, log fayllar, algoritm tarixchasi, qaror asoslari haqidagi ma’lumotlar arxivini saqlash talablari — qonunchilikka kiritilmoqda.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda kontragentlarning teng huquqlilik tamoyili buzilishi ehtimoli ham huquqiy jihatdan tahlil qilinishi lozim. Katta kompaniyalar yoki transmilliy korporatsiyalar murakkab sun’iy intellekt dasturlaridan foydalanish orqali kichik subyektlar ustidan bирyoqlama ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. Masalan, ular algoritmlarni mijozning zaif tomonlarini aniqlash, muzokaralarda imtiyozli shartlarni qo‘llash uchun sozlashi mumkin. Bunday vaziyatlar “avtomatlashtirilgan ekspluatatsiya” deb ataladi va bu sun’iy intellekt asosidagi shartnomalarning odillik, adolat va ixtiyoriylik tamoyillariga zid bo‘lishiga olib keladi.

Shu bois, O‘zbekistonda shartnoma qonunchiligin sun’iy intellekt vositalari bilan uyg‘unlashtirishda “ethical by design” — ya’ni, algoritmlarni yaratayotgandayoq etik tamoyillarni integratsiya qilish mexanizmlari qonunchilikda mustahkamlanishi kerak.

Nihoyat, sun'iy intellektni yuridik shaxs sifatida tan olish masalasi ham global huquqiy adabiyotlarda muhim muhokama markazida turibdi. Ayrim olimlar, xususan Solaiman (2017) va Abbott (2020) sun'iy intellektga cheklangan yuridik subyektlilik maqomini berish zarurligini ilgari suradilar, ayniqsa, u tijorat maqsadlarida mustaqil harakat qila olsa. Bu yondashuv sun'iy intellekt orqali tuzilgan shartnomalarda aniq subyektni ko'rsatish, mas'uliyat va javobgarlikni muayyanlashtirish imkonini beradi. Garchi bu kontseptsiya hozircha eksperimental darajada bo'lsa-da, lekin kelajakda bu kabi normativ muammolar O'zbekistonda ham dolzarb bo'lishi kutilmoqda.

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalarining muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun bir qancha omillar zarur: raqamlashtirilgan yuridik ma'lumotlar bazasi; aniq va to'liq normativ-huquqiy muhit; texnologik infratuzilma; yuridik va texnik mutaxassislar o'rtasida samarali kooperatsiya va nihoyat, etik va huquqiy mas'uliyat chegaralarini belgilovchi huquqiy doktrina.

Rivojlangan davlatlar — xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Estoniya, Singapur, Niderlandiya va boshqalar — bu borada ilg'or tajriba to'plagan bo'lib, ular sun'iy intellekt vositalarini shartnomaviy nizolarni hal etishda nafaqat texnologik yutuq, balki huquqiy islohotlar kontekstida strategik vosita sifatida ko'rmoqda.

AQShda sun'iy intellekt texnologiyalari huquq sohasiga jadal kirib kelmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellektni yuridik tizimda qo'llash bir qancha sohalarda izlanishlarni, amaliyotni va qonunchilikni rivojlantirishga turtki berdi. Yuridik texnologiyalar, ya'ni LegalTech, bugungi kunda nafaqat advokatlar, balki sudlar va arbitraj tizimlarida ham foydalaniлоqda. AQShdagagi yirik yuridik firmalar va texnologik kompaniyalar o'z tizimlarini ishlab chiqishda sun'iy intellektni keng qo'llamoqda, bu esa sud qarorlarini ko'proq bashorat qilish va shartnomaviy nizolarni oldindan ko'rish imkoniyatini beradi.

AQShda yuridik texnologiyalar shartnoma tahlili va taqqoslashda keng qo'llaniladi. Masalan, LawGeex tizimi sun'iy intellekt yordamida yuzlab yuridik hujjatlarni tezda tekshiradi, shartnoma matnidagi muammolarni aniqlaydi va o'zgarishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu tizim, odatda, shartnoma bo'yicha xatoliklarni topishga mo'ljallangan va yuridik mutaxassisning ishini sezilarli darajada soddalashtiradi. Bu jarayon aniqroq va tezroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi. LawGeex shartnomalarni oldin belgilangan siyosatlarga asosan ko'rib chiqadi va tajribali huquqiy xodim kabi ishlaydi. U shartnoma hayot davri avtomatlashtirish uchun modullarga ega, jumladan, tuzish, muzokara, ajratish va saqlash. Forrester reportiga ko'ra, u 209% ROI va 6500+ soat vaqtini saqlab qo'yadi, bu esa katta kompaniyalar uchun jozibador qiladi.

Buyuk Britaniya sun’iy intellekt texnologiyalarini yuridik tizimda qo‘llashda davlat darajasidagi muvofiqlashtirilgan yondashuvga ega bo‘lgan yetakchi davlatlardan biridir. Buyuk Britaniya yuridik tizimi tarixiy jihatdan mustahkam tamoyillar, mustaqil sud hokimiyati va rivojlangan shartnama huquqi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bu davlat sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini huquqiy xizmatlar va sud jarayonlariga tatbiq etishda ham yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda.

Buyuk Britaniyada sun’iy intellekt texnologiyalarini shartnomaviy nizolarni hal etishda qo‘llash hukumat siyosati, yuridik texnologiyalarni rivojlantirish institutsional mexanizmlari va etik standartlar orqali muvofiqlashtirilgan holda olib borilmoqda. ODR platformalari, SI asosidagi shartnama tahlil vositalari va sud qarorlarini prognozlovchi tizimlar — bularning barchasi kelajakda adolatga tezkor, iqtisodiy va raqamli yondashuvni ta’minlovchi huquqiy infratuzilmaning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Kanada shartnomaviy nizolarni hal etishda sun’iy intellektdan foydalanish sohasida jahon miqyosida ilg‘or davlatlar qatoridan o‘rin olgan bo‘lib, bu boradagi institutsional siyosati, texnologik infratuzilmasi va axloqiy-huquqiy yondashuvi muvozanatli va strategik asosda shakllantirilgan. Bu mamlakatda 2017-yildan boshlab sun’iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan “Pan-Canadian Artificial Intelligence Strategy” milliy strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, u mamlakat miqyosida sun’iy intellekt texnologiyalarini ilmiy tadqiqotlar, ta’lim, iqtisodiyot va ayniqsa, huquq sohasiga integratsiyalashni ko‘zda tutadi.

Kanada hukumati sun’iy intellektni raqamli transformatsiya vositasi sifatida qaror topdirar ekan, ayniqsa shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni tezkor, adolatli va iqtisodiy jihatdan tejamkor tarzda hal qilish uchun zamonaviy texnologik yechimlarga tayanmoqda. Ayniqsa, fuqarolik va iqtisodiy sud yurisdiksiyasida onlayn nizolarni hal etish tizimlarining shakllanishi, sun’iy intellektga asoslangan platformalarning paydo bo‘lishi bu borada muhim turtki bo‘lgan.

Kanadada shartnomaviy nizolarni hal etishda eng e’tiborga molik platformalardan biri bu – Civil Resolution Tribunal (CRT) hisoblanadi. Bu tribunal Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasida tashkil etilgan bo‘lib, u dunyodagi birinchi to‘liq onlayn faoliyat yurituvchi fuqarolik sudlaridan biri sanaladi. CRT tizimi sun’iy intellekt yordamida foydalanuvchilarga avtomatik maslahatchi (virtual assistant) xizmatlarini taklif etadi. Tizimdagи “Solution Explorer” deb nomlangan modul orqali nizoning tabiatni, shartnama shartlari, taraflar o‘rtasidagi huquqiy pozitsiyalar avtomatik ravishda tahlil qilinadi va foydalanuvchiga turli muqobil yechimlar taklif etiladi. Bu esa sun’iy intellektning real vaqt rejimida muammoga moslashtirilgan yechimlar yaratish qobiliyatidan dalolat beradi. Tizimga yuklangan oldingi sud qarorlari, amaldagi qonun normalari va statistik ehtimollar asosida qarorlar ishlab chiqiladi. CRT modelining o‘ziga xos jihat shundaki, u faqat

arzon va tezkor xizmat ko'rsatish bilan cheklanmay, balki jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga xizmat qiladigan ochiq va interaktiv mexanizmdir. Shu bilan birga, Kanada qonunchiligi CRT doirasida qabul qilingan qarorlarni majburiy ijroga yo'naltirish imkonini ham beradi, bu esa sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning nafaqat maslahatchi, balki real adliya subyektiga aylanish yo'lidagi muhim qadami hisoblanadi.

Shuningdek, Kanadada xususiy sektorda faoliyat yurituvchi bir qator innovatsion kompaniyalar ham shartnomaviy nizolarni hal etishga qaratilgan sun'iy intellekt platformalarini yaratishda muhim rol o'yamoqda. Masalan, Blue J Legal platformasi sun'iy intellekt asosida sud qarorlarini prognozlash imkonini beradi. U foydalanuvchidan shartnoma tafsilotlari va voqeal tafakkurlarini olgan holda, oldingi sud ishlariiga tayangan tarzda, ushbu nizo bo'yicha sud qanday qarorga kelishini yuz foizga yaqin aniqlikda taxminlaydi. Bu esa, ayniqsa yuridik firmalar uchun strategik qaror qabul qilishda yordam beruvchi muhim vositadir.

XULOSA. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy tizimlarga, xususan, shartnomaviy nizolarni hal etish sohasiga kirib kelishi huquqshunoslik fanida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida huquqiy tizimlar, xususan, shartnomaviy nizolarni hal etish mexanizmlari zamon bilan hamnafas ravishda rivojlanishni talab qilmoqda. An'anaviy nizolarni hal etish usullari ko'p hollarda uzoq vaqt talab qilishi, inson omiliga kuchli bog'liqligi, sud tizimidagi yuklamaning haddan tashqari ortishi, shuningdek, korrupsiyaviy xavflarning mavjudligi sababli, ushbu sohada zamonaviy texnologiyalarning, xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi dolzarb masalaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich 2025-yilning 27-fevral kuni sud faoliyatini yaxshilash, ochiqlik va raqamlashtirish darajasini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi. Yig'ilishda sud faoliyatini to'liq raqamlashtirish maqsadida "Raqamli sud" konsepsiyasini joriy etish rejalashtirilayotgani ta'kidlandi. Shu maqsadda Oliy sud huzurida Axborot texnologiyalari markazi tashkil etiladi. Bu markaz sun'iy intellekt va elektron xizmatlarni sud tizimiga tatbiq qilish bilan shug'ullanadi.

Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda, quyidagi takliflar berilmoqda:

1. Sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilovchi alohida qonun hujjati qabul qilinishi zarur. Sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilovchi alohida qonun hujjatini qabul qilish, bu texnologiyaning joriy etilishi va uning samarali ishlashini ta'minlash uchun zarurdir. Ushbu qonun, sun'iy intellektning barcha sohalarda, shu jumladan shartnomaviy nizolarni hal qilishda qanday ishlashini aniq belgilaydi. Aynan shu hujjat orqali sun'iy intellektning huquqiy roli, mas'uliyatni taqsimlash, uning javobgarligi va inson ustuvorligi tamoyillari, shuningdek, etik chegaralar belgilanishi kerak. Bunday qonun sun'iy intellektning qanday ishlashini va qanday

me'yorlarga amal qilishini tartibga soladi, bu esa huquqiy tizimning adolatli va shaffof ishlashiga yordam beradi.

2. Shartnomaviy nizolar bo'yicha "Decision-support systems" (qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimlari) joriy etilishi kerak. Shartnomaviy nizolarni hal etishda "decision-support systems" (qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimlari) joriy etish, sudyva va vositachilarga aniq tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Ushbu tizimlar shartnoma mazmunini, ilgari yuzaga kelgan o'xhash nizolarni va huquqiy natijalarni tahlil qilib, tavsiyalarni taqdim etadi. Biroq, tizimlar faqat tavsiyalarni berishi kerak, yakuniy qaror esa har doim inson tomonidan qabul qilinadi. Bu yondashuv sun'iy intellektning yordamini qabul qilgan holda, insonning huquqiy mas'uliyatini saqlashni ta'minlaydi. Shu tarzda, qaror qabul qilish jarayoni yanada samarali va tezroq amalga oshiriladi, biroq insonning qatnashishi barqaror adolatni ta'minlash uchun zarur bo'ladi.

3. Sud tizimiga sun'iy intellekt asosidagi dastlabki diagnostika platformalarini joriy etish lozim. Sud tizimiga sun'iy intellekt asosidagi dastlabki diagnostika platformalarini kiritish juda muhimdir. Ushbu platformalar orqali da'volarning qonuniy asosi, potentsial kelishuv yo'llari yoki arbitrajga yo'naltirish ehtimollari aniqlanishi mumkin. Bu diagnostika tizimlari sudlarning dastlabki baholash va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi va yengillashtiradi. Natijada, sud tizimi samaraliroq va adolatliroq ishlaydi, shuningdek, sudyalar o'z ishlariga oid aniq va ishonchli axborotga ega bo'lishadi. Bunday platformalar, ayniqsa, yirik joriy nizolarni hal qilishda ham samarali bo'ladi.

4. Huquqiy normalarni algoritmik adolat prinsiplariga moslashtirish zarur. Sun'iy intellekt orqali taqdim etilgan tavsiyalar va qarorlar huquqiy normalarga asoslanishi kerak, biroq ular ham algoritmik adolat prinsiplariga mos bo'lishi lozim. Bu shaffoflikni ta'minlash, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va inson huquqlariga zid kelmaslikni kafolatlaydi. Qonunchilikda "ethical-by-design" yondashuvini kiritish zarur. Bu yondashuv, sun'iy intellektning etik chegaralarini belgilab, uning ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning ishlash prinsiplariga ishonchni oshiradi va jamiyatda uning qabul qilinishini yengillashtiradi.

5. Tajriba loyihalarini yo'lga qo'yilishi kerak. Sun'iy intellekt vositalarini amaliyotga joriy qilishdan oldin, tajriba loyihalari va pilot projects (sinov loyihalari) yaratish zarur. Bunday sinov loyihalari Oliy sud huzurida yoki boshqa sud tizimlarida sinov tarzida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu loyihalalar, sun'iy intellekt texnologiyalarining real vaziyatlarda qanday ishlashini va qanday natijalar berishini sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Sinov loyihalari sun'iy intellektning imkoniyatlarini aniqlash, uning ishlash jarayonlarini tekshirish va undan kelib chiqadigan ehtimoliy muammolarni hal qilish imkoniyatini yaratadi.

6. Xalqaro huquqiy normalar bilan uyg‘un sun’iy intellekt strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. O‘zbekiston xalqaro miqyosda sun’iy intellektni boshqarish bo‘yicha belgilangan standartlarga mos kelishi uchun, xalqaro huquqiy normalar bilan uyg‘un sun’iy intellekt strategiyasini ishlab chiqishi lozim. O‘zbekiston YXHT, Yevroittifoq, ITU va OECD tomonidan taklif etilayotgan “AI governance” (sun’iy intellektni boshqarish) standartlariga mos yondashuvni qabul qilish kerak. Bunday strategiya, O‘zbekistonni global miqyosda raqobatbardosh qilib, xalqaro huquqiy doiradagi yuksak standartlarga mos kelishiga yordam beradi.

Bu takliflar, sun’iy intellektni huquqiy tizimga muvaffaqiyatl joriy etish uchun mustahkam asos yaratadi. Sharhnomaviy nizolarni hal etishda sun’iy intellekt texnologiyalarining roli faqatgina samaradorlikni oshirish emas, balki huquqiy adolatni ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. I qism. <https://lex.uz/docs/-111189> .
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. II qism. <https://lex.uz/docs/-180552> .
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T 2./O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – Toshkent.: “Vektor-Press” 1,2, 3 jildlar.
4. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. I.B.Zokirov; Mas’ul muxarrir: X.Rahmonqulov: Qayta ishlangan va to‘ldirilgan beshinchi nashr. T–.: TDYI nashriyoti, 2009.
5. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism / Mualliflar jamoasi – T.: TDYU nashriyoti, 2016.
6. Sun’iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma’ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O.Kuvandikov, mas’ul moharrir A.R.Axatov – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022.
7. UK Jurisdiction Taskforce. (2019). *Legal Statement on Cryptoassets and Smart Contracts*. LawTech Delivery Panel. Available at: <https://lawtechuk.io/explore/legal-statement-on-cryptoassets-and-smart-contracts>
8. Calo, R. (2016). Robots in American Law. *University of Washington School of Law Research Paper*, (2016-04).
9. Eubanks, V. (2018). *Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor*. St. Martin’s Press.
10. Calo, R. (2015). Robotics and the Lessons of Cyberlaw. *California Law Review*, 103(3), 513–563.
11. Katz, D. M., Bommarito, M. J., & Blackman, J. (2018). *A General Approach for Predicting the Behavior of the Supreme Court of the United States*. PLOS ONE, 12(4).
12. Blue J Legal. (n.d.). *Legal Predictive AI Platform*. Retrieved from <https://www.bluej.com>
13. <https://president.uz/uz/lists/view/7911>